

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

BEKBAYEV RAUF RUSTAMOVICH

**SHARQ VA G‘ARB FALSAFASI TARIXIDA AN‘ANA VA
AN‘ANAVIYLIK FENOMENI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

**Contents of the abstract of the dissertation of the
Doctor of Sciences (DSc)**

Bekbayev Rauf Rustamovich

Sharq va G‘arb falsafasi tarixida an‘ana va an‘anaviylik fenomeni3

Бекбаев Рауф Рустамович

Феномен традиции и традиционализм в истории восточной и западной философии.....39

Bekbaev Rauf Rustamovich

The phenomenon of tradition and traditionalism in the history of Eastern and Western philosophy.....79

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....85

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

BEKBAYEV RAUF RUSTAMOVICH

**SHARQ VA G‘ARB FALSAFASI TARIXIDA AN‘ANA VA
AN‘ANAVIYLIK FENOMENI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.DSc/Fal259 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Saidova Kamola Uskanbayevna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
falsafa fanlari doktori, professor

Qodirov Anvar Qahhorovich
falsafa fanlari doktori, professor

Norov Toji Omonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «18» avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, Yoshlar markazi binosi. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (121-raqam bilan ro'yxatga olingan.). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 236-46-55, faks: (+99871) 246-02-04.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» 07 da tarqatildi.

(2025 yil «25» 07 dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi.)



I.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rasi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'.G'.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy global o'zgarishlar va transformatsiyalar davrida madaniyatlar va sivilizatsiyalarning keng ko'lamli ma'naviy inqirozi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu inqiroz Sharq va G'arb madaniyatlarining ajralmas qismi bo'lgan an'ana kabi umumiy taraqqiyotning barqaror konstantalarini yo'qotish bilan bog'liq. «An'ana» fenomeni madaniyatning hayotiy faoliyatini tartibga soluvchi ma'naviy-tarixiy majmuadir. Shu bois, zamonaviy ma'naviy inqiroz Sharq va G'arb madaniyatlari muloqoti uchun muhim poydevor bo'lgan ushbu fenomenga murojaat qilishni talab etadi. Bu bugungi kunda global muammolarni hal qilish, shuningdek, respublikamizni yanada izchil rivojlantirish nuqtai nazaridan dolzarbdir.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida «an'anaviylik» sohasida turli nuqtai nazardan kompleks tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda «an'ana» va «an'anaviylik» falsafiy tafakkuri fenomenining madaniy-sivilizatsion kontekst doirasida komparativistik va madaniyatlararo xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda madaniyatlararo o'zaro ta'sir sharoitlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, falsafiy «an'ana»lar doirasidan tashqariga chiqadi. An'ana turli ijtimoiy-gumanitar fanlarning tadqiqot predmeti hamda madaniyat va jamiyat borlig'i fenomendir. Biroq aynan falsafiy-tarixiy tadqiqotlar doirasida ushbu kontekstda sezilarli bo'shliq kuzatiladi. Bu esa mazkur masala bo'yicha keyingi falsafiy izlanishlarni komparativistik yondashuv asosida amalga oshirish zaruratini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida aholining keng qatlamlari orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiya qilgan holda rivojlantirish, shuningdek, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlash, madaniyatlararo integratsiya platformasini shakllantirish strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda falsafa fanining roli fundamental ahamiyatga ega, chunki g'oyaviy-ma'naviy asos nafaqat Yangi O'zbekistonning harakatlantiruvchi kuchi va izchil taraqqiyotini tashkil etadi¹, balki uning ilmiy-metodologik vositalari bilimning turli sohalariga kirib borishi tufayli turli xil muammolarga nisbatan kompleks yondashuvni oldindan belgilab beradi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va minaqalararo tadqiqotlar instituti, Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi qoshidagi Xalqaro munosabatlar ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti hamda boshqa bir qator ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqot muayyan darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 08 oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.11.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2019-yil 15 noyabrdagi PF-5876-son «Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2020-yil 06 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning Yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi va PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi va 2025-yil 30 yanvardagi PF-16-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot»» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi, 2025-yil 19 martdagi PF-52-son «Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlarida hamda 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021-yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, PQ-115-son «O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlarida va dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². «An'anaviylik»ning kompleks tadqiq etish bilan xorijda turli ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassalari xususan San-Xose Kaliforniya shtati Universiteti huzuridagi Komparativistik falsafa markazi (AQSh), Dyuk universiteti huzuridagi Komparativistik falsafa markazi (AQSh), London universiteti Sharqshunoslik va afrikanistika maktabi qoshidagi Global va komparativistik falsafa markazi (Buyuk Britaniya), Leyden universiteti huzuridagi Madaniyatlararo falsafa markazi (Niderlandiya), Sivilizatsiyalarni komparativistik tadqiq etish markazi (Polsha), Ukraina MFA G.Skovoroda nomidagi Falsafa institutining Xorijiy falsafa bo'limi (Ukraina), Belarus Respublikasi MFA Falsafa instituti qoshidagi Falsafiy-tarixiy va komparativistik tadqiqotlar markazi (Belarusiya), Gonkong shahri universiteti huzuridagi Sharqiy Osiyo va komparativistik falsafa markazi (Gonkong, Xitoy), RFA Falsafa instituti (Rossiya Federatsiyasi) shug'ullanib kelmoqda.

Jahonda Sharq va G'arb falsafasi tarixida «an'ana» va «an'anaviylik» fenomeniga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasifa qator natijalar olingan:

² <https://www.sjsu.edu/centercomphil/>; <https://sites.duke.edu/centerforcomparativephilosophy/>;
<https://www.soas.ac.uk/research/research-centres/centre-global-and-comparative-philosophies/>;
https://psc.uj.edu.pl/en_GB/about/centre; <https://www.universiteitleiden.nl/en/humanities/institute-for-philosophy/centre-for-intercultural-philosophy>; <https://philosophy.by/en/departments/chpctr/>.

«an'anaviylik»ning tarixiy-madaniy jihatlarni va ularning Yevropa madaniyati shakllanishiga bo'lgan ta'siri ochib berilgan (Dyuk universiteti huzuridagi Komparativistik falsafa markazi, AQSh); G'arb falsafasidagi transtsendental g'oyalar Sharq falsafasidagi konfutsiychilik va buddaviylik an'analari bilan komparativistika rakursida aniqlangan (San-Xose Kaliforniya shtati Universiteti huzuridagi Komparativistik falsafa markazi, AQSh); an'analarda tadqiqotlar dekolonizatsiya, gender, inson va jamiyat masalalar doirasida ko'rib chiqilgan va o'ziga xos jihatlari ochib berilgan (Global va komparativistik falsafa markazi, Buyuk Britaniya); Sharq va G'arb an'analari bilan bog'liq matnlarning germenetikasi ochib berilgan (Leyden universiteti huzuridagi Madaniyatlararo falsafa markazi, Niderlandiya); an'anaviylikning Yevropa fikriga ta'siri ochib berilgan (G.Skovoroda nomidagi Falsafa instituti, Ukraina); konfutsiychilik va G'arb siyosat falsafasidagi an'anaviylik xususiyatlari aniqlangan (Gonkong shahri universiteti, Xitoy); an'anaviylikning falsafiy bazasi va vakillarini qarashlari ochib berilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston).

Dunyo miqyosida oliy ta'lim muassasalar va ilmiy-tadqiqot markazlarida Sharq va G'arb falsafasi tarixida «an'ana» va «an'anaviylik» fenomeni bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafa tarixida an'ananing metafizikasi va perennialistik bazasi; komparativistika doirasida an'ana va sivilizatsiyalararo muloqot; an'ana germenetikasi va uning axloqiy transformatsiyasi; dinshunoslik doirasida an'anaviylikning xususiyatlari; an'anaviylikning siyosiy va madaniy jihatlarning ijtimoiy amaliyotga ta'siri; an'ananing sotsiologiyasi va antropologiyasi hamda an'anaviylikning raqamli va postgumanistik davrdagi madaniyat taraqqiyotidagi o'rni; an'anaviylikning tarix falsafasi doirasidagi esxatologik xususiyatlarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri; ta'lim falsafasi doirasida an'anaviylikning ta'lim nazariyasi; an'anaviylikning estetik mohiyati va uning ijtimoiy amaliyotda namoyon bo'lish shakllari masalalari.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. «An'anaviylik»ning g'oyaviy-nazariy korpusi R.Genon, A.Kumarasvami, F.Shuon, Yu.Evola, S.X.Nasr kabi faylasuflarning asarlarida shakllangan. M.Eliade³, P.Chacornac, M.Valsan⁴, F.Pallavicini⁵ va boshqa olimlar «an'anaviylik» kontseptsiyalarini o'rganishgan va ularni dinshunoslik, falsafa, madaniyatshunoslik va siyosiy fanlar doirasida ishlab chiqishni davom ettirishgan. Shu bilan ular zamonaviy an'anaviylikga muhim hissa qo'shishgan.

Xorij olimlardan «an'anaviylik»ni tadqiq etish bilan M.Oromaner⁶, R.Handler⁷, J.Cutsinger⁸, R.W.Smid⁹, M.Sedgwick¹⁰, A.Chakrabarti, R.Weber¹¹,

³ Eliade M. Patterns in Comparative Religion. – New York: Sheed & Ward, 1958. – 484 p.

⁴ Valsan M. L'Islam et la Fonction de Rene Guénon. – Paris, 1984. – 400 p.

⁵ Pallavicini F. L'Islam intérieur. – Paris: Bertillat, 1995. – 220 p.

⁶ Oromaner M. Tradition. By Edward Shils. (Chicago: University of Chicago Press, 1981. Pp. viii + 334) // American Political Science Review. – 1983. – №77(4). – P.1124-1125.

⁷ Handler R. Tradition, Genuine or Spurious. – Bloomington: American Folklore Society, 1984.

⁸ Cutsinger J. Advice to the Serious Seeker: Meditations on the Teaching of Frithjof Schuon. – New York: State University of New York Press, 1997

M.Fitzgerald¹², Z.Poznanovic¹³, P.Laude¹⁴ kabi mutaxassislar shug‘ullanib kelmoqda. Ularning ishlarida asosiy diqqat-e’tibor an’anaviylikning genezisi va XX asr G‘arb falsafasida uning shakllanishiga hamda «an’ana» fenomeni va an’anachilarning konseptsiyalarini komparativistik o‘rganishga qaratilgan.

Postsovet mintaqada «an’anaviylik»ni tadqiq etish bilan V.Yeryomin¹⁵, O.Gutsulyak¹⁶, I.Makarov¹⁷, M.Stepanyants¹⁸, A.Kolesnikov¹⁹, J.Altayev²⁰, Yu.Stefanov²¹, L.Sugrey²², I.Polonskaya²³, Ye.Romanovskaya²⁴, G.Illarionov²⁵, K.Salixova²⁶, T.Lyubimova²⁷, N.Xupeniya²⁸ boshqa tadqiqotshilar shug‘ullanib kelmoqda. Mazkur mutaxassislar «an’ana» fenomeni va «an’anaviylik»ni uning g‘oyaviy-falsafiy konstrukti, kross-madaniy tadqiqotlar hamda «an’ana»ning jamiyat va madaniyatda namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqishmoqda.

O‘zbekiston faylasuflaridan Q.Xonazarov²⁹, I.Saifnazarov³⁰, A.Qodirov³¹, B.Karimov³², F.Saifnazarova³³, F.Sulaymonova³⁴, M.Umarova³⁵, R.Karimov³⁶,

⁹ Smid R.W. Methodologies of comparative philosophy: the pragmatist and process traditions. – New York: State University of New York Press, 2009.

¹⁰ Sedwick M. Against the modern world: traditionalism and the secret intellectual history of the twentieth century. – Oxford: Oxford University Press, 2004.

¹¹ Chakrabarti A., Weber R. Comparative Philosophy Without Borders. – New York: Bloomsbury, 2016.

¹² Fitzgerald M. Frithjof Schuon: Messenger of the Perennial Philosophy. – Bloomington: World Wisdom, 2010.

¹³ Poznanovic Z. The secret of Rene Guenon: A critical review of Guenon's traditionalism // Kom Casopis Za Religijske Nauke. – 2014. – № 3(2). – P.35-54.

¹⁴ Laude P. Keys to the Beyond: Frithjof Schuon's Cross-Traditional Language of Transcendence. – New York: State University of New York Press, 2020.

¹⁵ Єрьомін В.Ю. Інтегральний традиціоналізм та philosophia perennis в контексті європейської культури // Вісник Маріупольського державного університету. Сер.: Філософія, культурологія, соціологія. – 2019. – №18. – С.19-26.

¹⁶ Гуцуляк О.Б. Традиція і традиціоналізм: Альманах 2014-2015 / Інститут філософії імені Г.С. Сковороди НАН України. – Вінниця: ТОВ «Нілан-НТД», 2015. – С.42-57.

¹⁷ Макаров А.И. "История" и "традиция" в философии европейского традиционализма: Рене Генон и Мирча Элиаде: дисс...канд.филос.н. – Волгоград, 1998.

¹⁸ Степанянц М.Т. Межкультурная философия: истоки, методология, проблематика, перспективы. – Москва: Восточная литература, 2020.

¹⁹ Колесников А.С. Философская компаративистика. – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2004.

²⁰ Алтаев Ж. Аль-Фараби в диалоге цивилизаций. – Алматы, 2017. – 320 с.

²¹ Стефанов Ю. Рене Генон и философия традиционализма // Вопросы философии. – 1991. – №4. – С.31-42.

²² Сугрей Л.А. Традиционализм в контексте социально-философского анализа: дисс...докт.филос.н. – Ставрополь, 2003.

²³ Полонская И.Н. Социокультурная традиция: онтология и динамика: дисс...докт.филос.н. – Ростов-на-Дону, 2006.

²⁴ Романовская Е.В. Традиция как форма социальной памяти: герменевтический и институциональный горизонты: дисс... докт.филос.н. – Саратов, 2013.

²⁵ Илларионов Г.А. Социально-философский анализ «традиционалистского проекта»: дисс.канд. филос. н. – Красноярск, 2015.

²⁶ Салихова К.А. Культурологическое содержание концепта «Восток»: дисс...канд.культурологии. – Иваново, 2017.

²⁷ Любимова Т.Б. «Вечная философия» единой традиции в символах // Vox. Философский журнал. – 2018. – №24. – С.15-38.

²⁸ Хупения Н.Р. Ценностный статус традиции в период социальных трансформаций: дисс...канд.филос.н. – Москва, 2019.

²⁹ Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент, 2009.

³⁰ Saifnazarov I. Pragmatizm - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining falsafasi sifatida. – Toshkent: Oltin Qalam, 2023.

³¹ Qodirov A.Q. An'anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalash strategiyasi. – Toshkent: TDYUI, 2006.

³² Каримов Б.Р. Туркий цивилизацияларнинг жаҳон цивилизацияси тизимида ривож: монография. – Тошкент: Fan Ziyosi, 2024.

³³ Саифназарова Ф. Узбекская семья как национальная и общественная ценность: прошлое и настоящее. – Ташкент, 2014.

G.Ruzmatova³⁷, N.Nazarov³⁸, O.Musayev³⁹, K.Saidova⁴⁰, G.Kabulniyazova⁴¹ kabi mutaxassislar «an'ana» fenomenini keng tadqiqotlar doirasida o'rganishmoqda. Ularning tadqiqotlarida asosiy e'tibor an'ana va an'anaviylik masalasi falsafiy komparativistika va madaniyatalararo falsafasi, globallashuv va global muammolar, millatlararo munosabatlar va ijtimoiy falsafa kontekstida olib borilmoqda.

Turli xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda «an'ana» va «an'anaviylik» muammosi keng ishlab chiqilganiga qaramay, tadqiqotchilarning asosiy e'tibori tarix, ijtimoiy falsafa, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslik doirasida bo'lganligi sababli, ushbu muammoni falsafiy-tarixiy jihatdan tadqiq etish bo'yicha ma'lum bir bo'shliq saqlanib qolmoqda. Aynan falsafiy-tarixiy jihat kam o'rganilgan va yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Disseptatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Sharq falsafasi va madaniyati qadriyatlarini» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sharq va G'arb falsafasi tarixida «an'ana» va «an'anaviylik» fenomenining falsafiy-tarixiy evolyutsiyasi asosiy vektorlarining Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagicha belgilangan:

zamonaviy tadqiqotlarda «an'ana» va «an'anaviylik» masalasining nazariy-metodologik bazasini komparativistika va madaniyatlararo falsafa metodologiyasiga urg'u berish asosida uning evolyutsiyasini Sharq va G'arb paradigmalari integratsiyasidagi asosiy vektorlarini o'rganish kontekstida aniqlash;

G'arb falsafasi shakllanishi va rivojlanishida «an'ana» va «an'anaviylik» masalasi qo'yilishi va hal qilinishining asosiy tamoyillarini an'anaviylik falsafasida an'ana tushunilishining o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berib tahlil qilish;

XX asr G'arb «an'anaviylik»ni yaxlit doktrinal tizim sifatida uning g'oyaviy-nazariy fundamenti va asosiy yo'nalishlarini kompleks xarakterdagi xususiyatlarini ochib berish orqali tadqiq etish;

Vatanimiz ma'naviy evolyutsiyasining asosiy tendentsiyalari shakllanishini zamonaviy o'zbek madaniy indentikligi bilan bo'lgan aloqasini ochish orqali «an'anaviylik» qadimgi Sharq paradigmalarining o'rnini va ta'sirini aniqlash;

³⁴ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.

³⁵ Умарова М.А. Миллий муносабатлар тараққиётида урф-одатлар ва анъаналар аҳамияти: фалсафа фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 1994.

³⁶ Каримов Р.Р. Парадигмы философской компаративистики: монография. – Ташкент, 2021.

³⁷ Ruzmatova G., Karimov R. Falsafiy komparativistika. – Toshkent: Universitet, 2022.

³⁸ Nazarov N.A. Markaziy Osiyo polietnik sotsiumida millatlararo munosabatlar takomillashuvining falsafiy-funksional tadqiqi: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.

³⁹ Musayev O.R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari: falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017y.

⁴⁰ Саидова К.У. Парадигма экзистенциального опыта семьи как фактор компаративистского анализа на Востоке и Западе: дисс...докт.филос.н. (DSc). – Ташкент, 2022.

⁴¹ Kabulniyazova G.T. Fridrix Nitsse va Anri Bergson «hayot falsafasida» inson muammosi: fals.f.d. (DSc) diss. – Toshkent, 2023.

Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessansga o‘tish uchun poydevorni shakllantirishda Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida arab-musulmon madaniyati «an’ana»larini namoyon bo‘lishning asosiy vektorlari va ahamiyatini aniqlash;

«an’ana» fenomenining keng doirasi asosida ma’naviy-ma’rifiy soha va madaniyatlararo muloqot sintezida Uchinchi Renessans ostonasida bo‘lgan Yangi O‘zbekiston zamonaviy ma’naviy taraqqiyotida «an’anaviylik»ning roli va o‘rnini asoslash.

Tadqiqotning obyektini Sharq va G‘arb falsafasining g‘oyaviy-falsafiy merosi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida Sharq va G‘arb falsafasida «an’ana» va «an’anaviylik» fenomeni evolyutsiyasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-madaniy, komparativistik, tizimli va tarkibiy ilmiy tahlil, germenevtika, sintez, deduksiya va induksiya hamda kontent-tahlil, sotsiologik so‘rovnoma va matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«an’ana » falsafa tarixida va ijtimoiy-madaniy amaliyotning turli sohalarida namoyon bo‘luvchi ko‘p qirrali kompleks fenomen sifatida Sharq va G‘arb madaniyatlarining serhosil muloqoti uchun fundamental bazaligi, Yangi O‘zbekistonning madaniyatlararo aloqalarini ma’naviy vorisiylik, daxldorlik va «an’ana»lar sinergiyasi tamoyillariga asosan amalga oshirishga konstruktiv platformaligi ochib berilgan;

«an’ana» va «an’anaviylik» fenomeni Yangi O‘zbekistonda samarali ijtimoiy, madaniyatlararo, ta’lim va dinlararo integratsiyani yaratish hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlashda madaniy-tarixiy va fenomenologik-gemenevtik struktura sifatida metodologik asosligi falsafiy-komparativistik yondashuvning instrumentariysi (ekvivalentlik, analogiya, parallellik, tipologizatsiya) nuqtai nazardan aniqlangan;

Yangi O‘zbekiston yosh avlod vakillarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishning dinamik resursi sifatida madaniy identiklikni saqlab milliy qadriyatlar va zamonaviy davr tendentsiyalarini birlashtiruvchi madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirishda «an’ana» va «an’anaviylik» fenomenining funksional poydevorligi aniqlangan;

globalizatsiya va zamonaviy transformatsiyalar sharoitida Yangi O‘zbekistonning barqaror ma’naviy-madaniy taraqqiyotida ijtimoiy yangilanish va madaniy-aksiologik vorisiylikni uyg‘unlashtirishda «an’ana» fenomenining tuzilmaviy mexanizm sifatidagi «an’ana» va modernizatsiyadagi integratsion jarayonlarni strategik amaliy ahamiyati asoslab berilgan;

Yangi O‘zbekistonning tadrijiy taraqqiyotida madaniy identiklikning bir qismi bo‘lgan «an’ana» fenomeni matematik model asosida madaniy taraqqiyotning tadqiqi hamda istiqbollari tendentsiyalari «an’ana» va zamonaviylikning integratsiyalashuv darajasiga bog‘liqligi tuzilmaviy dinamika nuqtai nazardan ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan yoshlarning madaniyatlararo kompetensiyasini «an'anaviylik» asosida shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha maktab ta'limi darajasida ham oliy ta'lim darajasida ham ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni takomillashtirish maqsadida madaniyat, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi davlat siyosati dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanish imkoniyati yaratilgan;

tadqiqot natijalaridan «an'anaviylik»ning g'oyaviy-nazariy va ilmiy-falsafiy asoslari orqali an'ananing zamonaviylikdagi o'rni va madaniyatlararo o'zaro ta'siri masalalarini kompleks o'rganish maqsadida ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlar dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

tadqiqot natijalari jamiyat hayotining keng sohalarini qamrab oluvchi madaniy rivojlanishning taklif etilgan modeli asosida mamlakatni barqaror rivojlantirishning maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi va inobatga olinishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferentsiyalar materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati dissertatsiyada olingan natijalar, taklif va tavsiyalardan «an'ana» va «an'anaviylik» fenomenini o'rganishda, ularning Sharq va G'arb falsafasi tarixidagi o'rni va roli hamda Sharq va G'arb komparativistikasi hamda barcha ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasidagi madaniyatlararo tadqiqotlarda muayyan hissa sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Olingan natijalar, taklif va tavsiyalardan ta'lim, madaniyat va ma'rifat sohasidagi davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatida madaniyatlararo muloqot va an'anaviy qadriyatlarni targ'ib qilish, shuningdek, Sharq va G'arbnin madaniyatlararo kontekstida «an'ana» fenomenini va «an'anaviylik»ni hisobga olgan holda o'rta va oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sharq va G'arb falsafasi tarixida «an'ana» va «an'anaviylik» fenomenining falsafiy-tarixiy evolyutsiyasining asosiy vektorlari va uning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etish natijalarida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

«an'ana» falsafa tarixida va ijtimoiy-madaniy amaliyotning turli sohalarida namoyon bo'luvchi ko'p qirrali kompleks fenomen sifatida Sharq va G'arb madaniyatlarining serhosil muloqoti uchun fundamental bazaligi, Yangi O'zbekistonning madaniyatlararo aloqalarini ma'naviy vorislik, daxldorlik va an'analar sinergiyasi tamoyillariga asosan amalga oshirishga konstruktiv platformaligiga oid ilmiy xulosadan «Sharq va G'arb falsafasi tarixi» fanidan darslik ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 03.10.2024-yildagi 4/17-04-04-02/2252-son

ma'lumotnomasi). Natijada, darslikning ilmiy-uslubiy asosini va o'quv mazmunini komparativistik va madaniyatlararo yondashuvlar hamda an'anaviylikning kategorial apparatini kiritish orqali takomillashtirishga, shuningdek, falsafiy tafakkurga dinamik tizim sifatida yaxlit qarashni shakllantirishga xizmat qilgan;

«an'ana» va «an'anaviylik» fenomeni Yangi O'zbekistonda samarali ijtimoiy, madaniyatlararo, ta'lim va dinlararo integratsiyani yaratish hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlashda madaniy-tarixiy va fenomenologik-gemenevtik struktura sifatida metodologik asosligi falsafiy-komparativistik yondashuvning instrumentariysi (ekvivalentlik, analogiya, parallellik, tipologizatsiya) nuqtai nazardan aniqlanganligiga oid xulosa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatida konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, shuningdek, madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024-yil 18-oktyabrdagi 14-07-1209-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'tkazilayotgan tadbirlarning mazmuniy va konseptual darajasini oshirishga, xorijiy mamlakatlar va vatandoshlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishda kompleks g'oyaviy-nazariy platformani rivojlantirishga, shuningdek, Yangi O'zbekistonning ochiq davlat sifatidagi imidjini targ'ib qilishga qaratilgan madaniy tashabbuslarda akademik ishtirokni kengaytirishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekiston yosh avlod vakillarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishning dinamik resursi sifatida madaniy identiklikni saqlab milliy qadriyatlar va zamonaviy davr tendentsiyalarini birlashtiruvchi madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirishda «an'ana» va «an'anaviylik» fenomenining funktsional poydevorligiga oid xulosa O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 08.10.2024-yildagi No4-13-21-5282-son ma'lumotnomasi). Natijada, agentlik tomonidan ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ijtimoiy loyihalarni hayotga tatbiq etish, an'analarni shaxsiy va fuqarolik yuksalishi uchun manba sifatida idrok etish orqali yosh avlodning ma'naviy-axloqiy saviyasi va tanqidiy tafakkurini yuksaltirishga xizmat qilgan;

globalizatsiya va zamonaviy transformatsiyalar sharoitida Yangi O'zbekistonning barqaror ma'naviy-madaniy taraqqiyotida ijtimoiy yangilanish va madaniy-aksiologik vorisiylikni uyg'unlashtirishda «an'ana» fenomenining tuzilmaviy mexanizm sifatidagi «an'ana» va modernizatsiyadagi integratsion jarayonlarni strategik amaliy ahamiyatiga oid xulosadan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 04.10.2024-yildagi 10/104-son ma'lumotnomasi). Natijada, turli madaniyat vakillari o'rtasida hurmat, do'stlik va hamjihatlik ruhini mustahkamlash orqali respublika aholisi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishga, an'ana fenomeni asosida millatlararo va konfessiyalararo muloqotning mustahkam poydevorini shakllantirishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonning tadrijiy taraqqiyotida madaniy identiklikning bir qismi bo'lgan «an'ana» fenomeni matematik model asosida madaniy

taraqqiyotning tadqiqi hamda istiqbollari tendensiyalari «an'ana» va zamonaviylikning integratsiyalashuv darajasiga bog'liqligi tuzilmaviy dinamika nuqtai nazardan ochib berilganligiga oid xulosadan «O'zbekiston» teleradiokanalida teleko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan («O'zbekiston teleradiokanali» davlat muassasasining 2024-yil 23-oktyabrdagi 01-30-1135-son ma'lumotnomasi). Natijada «Tarixiy masala» va «Etno» teleko'rsatuvlar ssenariylarining ilmiy-falsafiy mazmunini oshirish, madaniy merosni asrash va jamiyatni uyg'un rivojlantirishning dolzarb muammolarini sifatli yoritish, tomoshabinlarda an'analarga ongli munosabatni hozirgi zamon kontekstida shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (9 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, o'n ikkita paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati iborat. Dissertatsiya matnining umumiy hajmi 251 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv muassasasining ilmiy tadqiqot rejaları bilan bog'liqligi, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning «**Falsafiy-tarixiy diskursda an'ana va an'anaviylik masalasining nazariy-metodologik jihatlari**» deb nomlangan dissertatsiyaning birinchi bobida muallif tomonidan zamonaviy tadqiqotlarda an'ana va an'anaviylik muammosining qo'yilishi, an'anaviylik evolyutsiyasining asosiy vektorlarini o'rganishda komparativistika va madaniyatlararo falsafa metodologiyasi, shuningdek, an'anaviylikni tushunishda Sharq va G'arb paradigmalarning integratsiyasi ko'rib chiqilgan.

An'anaviylik falsafasida ham, umuman ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham «an'ana» tushunchasining ta'rifi kompleks xarakterga ega ekanligi ta'kidlanadi, shu munosabat bilan muallif o'z ta'rifini beradi:

An'ana – bu jamiyatning tarixiy tajribasi natijasida shakllangan, uning ongsiz sohasida chuqur ildiz otgan va ijtimoiy hayotning turli jihatlarini (diniy, madaniy,

siyosiy, falsafiy va boshqalar) birlashtirgan bilimlar va amaliyotlarning yaxlit tizimidir.

Ushbu ta'rif nazaridan muallif an'ana turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda qanday namoyon bo'lishi shakllarini tadqiq etiladi. Shu bilan birga, muallif an'anaviylik nima ekanligini aniqlaydi.

«An'anaviylik» – avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analarga sodiqlikka asoslangan va tarixiy shakllangan amaliyotlar, ijtimoiy institutlar va madaniy merosni saqlash hamda hurmat qilishni nazarda tutuvchi dunyoqarash va madaniy pozitsiyadir.

Muallif fan falsafasi, sotsiologiya, postmodern falsafasi, madaniy antropologiya va siyosatshunoslikda an'ananing tushunilishini ochib beradi. Fan falsafasi doirasida muallif M.Polanining «shaxsiy bilim» kontseptsiyasiga e'tibor qaratgan va Polani tomonidan ilmiy hayot tizimi «ustoz-shogird» munosabatlari an'anasiga asoslanganligi va bu ilmiy bilimning izchilligi va barqarorligiga urg'u berilganligi ko'rsatilgan⁴². Sotsiologiya fan doirasida an'ana ikkita asosiy, ya'ni naturalistik va konstruktivistik paradigmalarda kontekstida ko'riladi. Birinchi holatda an'ana barqaror va o'zgarmaydigan deb ko'riladi hamda zamonaviylikka qarama-qarshi qo'yiladi, konstruktivizm esa aksincha, an'ana cheksiz dinamikadaligi aniqlanadi. Bu esa postmodern falsafasi bilan bog'liq. Misol sifatida J.Delyozning rizoma kontseptsiyasi⁴³ olingan, chunki an'ana rizoma yoki rizomatik tuzilma sifatida ko'plab aloqalar orqali rivojlanadi va uning dekontekstualizatsiyasi ham amalga oshadi. Mazkur ma'noda an'ana doimiy harakat, o'zgarish va yangi sharoitlarga moslashishda bo'ladi. Naturalistik va konstruktivistik paradigmalarda o'rtasida E.Shilz va Sh.Ayzenshtadt yondashuvlari turadi. Shilz mazmun va institutsional sharoitlarda qat'i nazar an'ana o'tkazish jarayonida barqaror yoki takrorlanuvchi xarakterga egaligiga e'tibor qaratadi⁴⁴. Ayzenshtadt esa sivilizatsiyalar va an'analarni qiyosiy tadqiq etish bilan shug'ullangan. Olim an'ana va modern o'zaro nisbati masalasini dolzarblashtirgan. U «an'ana» tushunchasi keng tarqalganligiga qaramay, ushbu tushuncha aniq ta'rifi mavjud emasligini ta'kidlagan, chunki turli tadqiqotchilar ushbu masalani o'z nuqtai nazaridan ko'rib chiqishadi⁴⁵. «An'ana-modern» dixotomiyasi davom etmoqda, zero hanuzgacha «an'analarning ta'siri qay darajada past bo'lsa, shungan mos jamiyat zamonaviy bo'ladi, demak u yangi muammolar va yangi ijtimoiy kuchlarga barham berish hamda o'zining institutsional tuzilmasini rivojlantirish holatida bo'ladi»⁴⁶. An'ana fenomeni va an'anaviylikni tadqiq etish masalasi madaniy antropologiyada ham mavjud va bunda an'ananing simvolizmi va uni talqin qilishga asosiy diqqat-e'tibor qaratilgan. Siyosatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda an'ana masalasi siyosiy jarayonlar, institutlar va mafkura hamda siyosiy antropologiya bilan bog'liq.

⁴² Polany M. *Science, Faith, and Society*. – Oxford: Oxford University Press, 1946. – P.42.

⁴³ См.: Делез Ж., Гваттари Ф. *Тысяча плато: Капитализм и шизофрения*. – Москва: Астрель, 2010.

⁴⁴ Shils E. *Tradition*. – Chicago: University of Chicago Press, 1981. – P.16.


⁴⁵ Эйзенштадт Ш. *О неопределенности термина «традиция» // Сравнительное изучение цивилизаций*. – Москва: Аспект Пресс, 1998. – С.237.

⁴⁶ Там же. С.238.

Muallif zamonaviy traditsiologiya sohasidagi tadqiqotlarni ham ko‘rib chiqib, M.Sedjvik, X.Smit, Dj.Kutsinger, P.Laud, T.Daffern, X.A.Ulate, K.Basalmont kabi yirik xorijiy mutaxassislarni ta'qidlagan. Mazkur mutaxassislarning tadqiqotlari an'anaviylikning turli yo‘nalishlarini komparativistik yondashuv asosida o‘rganishga qaratilgan. Postsovet mintaqada an'anaviylik, uning ta'limoti va asosiy namoyondalarining qarashlari yaqindan buyon tadqiq etilishi boshlandi va bu jarayonda asosiy mutaxassislar Yu.Stefanov Yu.Stefanov, A.Makarov, L.Sugrey, I.Polonskaya, Ye.Romanovskaya, G.Illarionov, K.Salixova, N.Xupeniya, V.Eryominlar bo‘ladi. Milliy falsafa fanida esa an'anaviylikni tadqiq etish masalasi asosan ijtimoiy falsafa doirasida amalga oshirilmoqda. Bunda mualliflar M.Umarova, A.Qodirov, N.Nazarov, R.Karimov, K.Saidovalarning tadqiqotlariga e'tibor qaratgan. Muallifning fikricha, an'ana va an'anaviylik masalasining qo‘yilishi zamonaviy tadqiqotlarda kompleks ravishda turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda an'anaga ta'rif berish, uning germenevtikasi va ijtimoiy-madaniy, ilmiy va siyosiy namoyon bo‘lishidan boshlanib, an'anaviylikning turli jihatlari hamda uning asosiy namoyondalarining kontseptsiyalarini falsafiy tadqiq etish orqali amalga oshirilgan. An'anaviylik tomonidan qo‘yilgan masalalar doirasiga bo‘lgan qiziqishning umumiy vektori hanuzgacha davom etmoqda.

Dissertatsiyada qo‘yilgan masalaning metodologik jihatlarini ko‘rib chiqishda muallif komparativistika va madaniyatlararo falsafaning instrumentariysiga e'tibor qaratadi. Turli madaniyatlar va an'analarni qiyoslashga asoslangan komparativistik metodologiya an'anaviylikning turli jihatlardagi umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Turli an'analar o‘rtasidagi aniq o‘xshashliklarni ochib berish uchun komparativistika birinchi navbatda analogiya, o‘xshashlik va nibsat usullariga urg‘u qiladi. Ushbu barcha usullar bir birni to‘ldiradi, Sharq va G‘arb an'analarini komparativistik tadqiq etishda kompleks yondashuvni taqdim etadi, ularning ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida chuqur tushunilishiga xizmat qiladi. Bu asosda komparativistika uchun predmetli xususiyatlarga ega an'analar o‘lchovdoshligi metodologik masalasi yanada dolzarb bo‘lmoqda⁴⁷.

1-rasm. An'analarni komparativistik tahlili mexanizmi



⁴⁷ Wong D. Comparative Philosophy: Chinese and Western // The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Fall 2020 Edition), Edward N. Zalta (ed.). Режим доступа: <https://plato.stanford.edu/archives/fall2020/entries/comparphil-chiwes/>. Дата обращения: 10.01.2024г.

Komparativistikaning metodologik bazasiga asoslangan madaniyatlararo falsafa an'anaviylikni tadqiq etish uchun o'zining original usullarini taqdim etadi. Madaniyatlararo falsafaning bazaviy tamoyillari an'anaviylik shakllanishi va rivojlanishi jarayonini kompleks va xolis tadqiq etishga xizmat qiladi, ammo madaniyatlararolik bunda o'zining yondashuvi – to'rt o'lchamli hermenevtik dialektikani taklif qiladi. Ushbu nuqtai nazardan an'ana fenomenini o'rganish quyidagilarga asoslanishi lozim:

- 1) madaniyatning o'z-o'zini anglashi;
- 2) ushbu madaniyat tomonidan boshqa madaniyatlar idrok etilishi;
- 3) mazkur madaniyatning boshqa madaniyatlar oldida namoyon bo'lishi;
- 4) boshqa madaniyatlarning o'z-o'zini anglashi.

To'rt o'lchamli hermenevtik dialektikaning asosiy maqsadi turli madaniyatlar bir birini qanday tushunishi hamda qay tarzda har bir madaniyat talqin etilishi mumkinligi tadqiq etishdan iborat. Madaniyatlararo falsafasining metodologiyasi dialogik yondashuvga katta urg'u bilan ajralib turadi. Bu esa hamkorlik va o'zaro munosabatlar doirasini kengaytirish maqsadida turli an'analar o'rtasida muloqotni shakllantirish uchun muhim. Bunda fenomenologik yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki u an'anaviylikni uning namoyondalari sub'ektiv tajribasi asosida tadqiq etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, madaniyatlararo falsafada quyidagilarga yo'naltirilgan o'z tanqidiy nazariyasi rivojlangan:

- 1) madaniy gegemoniya, mafkura va ijtimoiy konstruksiyalarning tanqidiy tahlili;
- 2) madaniyatlar tengligi uchun sharoitlarni yaratishda yuqoridagilarning dekonstruksiyasi.

Bularning barchasi an'anaviylik aynan nima uchun zamonaviy dunyo, globallashtirish va falsafani tanqid qilishini tushunish uchun metodologik nuqtai nazardan muhim.

An'ana fenomeni va an'anaviylikni Sharq va G'arb falsafasi tarixida nazariy-metodologik nuqtai nazardan ochib berish aossida muallif tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun muhim bo'lgan an'anaviylikda Sharq va G'arb paradigmalarining integratsiyasi masalasini ko'rib chiqqan. Muallif shunga e'tibor qaratadiki, an'anaviylikda Sharq va G'arb paradigmalarining yaxlit tizimdagi kompleks integratsiyasi ularning har birini o'ziga xosligini saqlash bilan amalga oshiriladi. Bu yerda an'anaviylik uchun an'ana nimaligini aniqlash muhim, chunki aynan an'ana ushbu jarayon uchun asosiy nuqta hisoblanadi. An'anaviylik uchun an'ana – bu abadiy va universal haqiqatlarni aks etadigan va uzatadigan ma'naviy va metafizik tamoyillarning majmui. Muallif ko'rsatadiki, an'anaviylik vakillari an'ananing ikki tomoniga e'tibor qaratishadi:

- 1) ekzoterik tomon, ya'ni barchalar uchun ochiq, an'anaviy ijtimoiy tartib va iyerarxiyani qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan;
- 2) ezoterik, ya'ni ko'plar uchun botiniy bo'lgan va an'ana ta'limotini aks ettiradigan.

An'ananing ezoterik tomonini vazifasi – an'anaviy bilimni saqlash, uzatish va qo'llab-quvvatlash. Ekzoterik tomonni vazifasi esa ijtimoiy iyerarxiya va tartibni saqlash, jamiyat faoliyatini tartibga solish. An'ananing aynan mazkur ta'rifi

va unga bo'lgan ushbu yondashuv orqali an'anaviylikda Sharq va G'arb paradigmalarning integratsiyasi amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning «**G'arb falsafasi shakllanishi va rivojlanishida an'ana va an'anaviylik masalasi qo'yilishi va yechilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida muallif antik madaniyat an'anaviyligi diskursida falsafiy refleksiya, O'rta asrlar va Uyg'onish davri falsafasi refleksiyasida an'anaviylik hamada an'anaviylik fenomenining Yangi Yevropa vektoridan XIX asr irratsionalizmiga bo'lgan «inqilobiy burilishi»dagi transformatsiyasini ochib bergan.

Antik davr madaniyati falsafiy taffakkur doirasida an'ana masalasi qo'yilishi mifologiya orqali amalga oshiriladi va shunisi muhimki, antik mifologik botiniy xarakterga ega va unda simvolizm namoyon bo'ladi. A.F.Losev shunga e'tibor qaratadiki, antik simvolizm bu nafaqat nazariya, balki hayot amaliyoti⁴⁸. Muallif tomonidan asosiy e'tibor Orfik va Elevsin misteriyalar hamda Giperboreya haqidagi mifga qaratiladi. Ushbu mif an'anaviylik uchun alohida ahamiyatga ega, chunki unda an'anaviylik ijtimoiy nazariyasi intiladigan jamiyat konturlari mavjud, zero Giperboreya jamiyati kishilar o'rtasidagi hamda tabiat va umuman universal tartib bilan uyg'unlik holatidadir. Ya'ni, bu yerda insoniy va ilohiy o'rtasida uyg'unlik kuzatiladi, ijtimoiy tartib an'anaviylik ta'riflaydigan tamoyillarga asoslangan, botiniy bilim esa ma'naviy uchun ham, dunyoviy uchun ham asos sifatida namoyon bo'ladi.

Orfiklar va elevsinlar, ayniqsa birinchilar antik davrning an'anaviy ta'limoti bo'lgan pifagorchilikga fundamental ta'sir o'tkazgan. Matematika, falsafa va ma'naviy o'z-o'zini bilish elementlarini ko'shib, pifagorchilik butun borliqni bilishga qaratilgan kompleks tizimni ishlab chiqqan. Xususan, pifagorchilar an'anasida matematika uning ekzoterik namoyon bo'lishida sonlar va ular ustidagi amallar haqidagi fan, lekin ezoterik tomondan u universum tabiatini bilish uchun kalit, chunki u metafizik va ma'naviy jihatlar bilan chuqur bog'liq. An'ana fenomenining pifagorchilikda namoyon bo'lishida metempsixoz haqidagi ta'limot muhim ahamiyatga ega, chunki pifagorchilar quyidagiga e'tiqod qilishgan:

- 1) qalb abadiyati;
- 2) reinkarnatsiyaning siklikligi;
- 3) ushbu jarayonning kosmologiya bilan bog'liqligi.

Reinkarnatsiyaning barcha sikllarini maqsadi poklanish va transtsendnetlik bilan yagonalashish, zero pifagorchilarda tartib-intizom, etika va asketizmga qaratilgan turli ma'naviy amaliyotlar bo'lgan.

Geraklit falsafasida an'anaviylik Olov sifatidagi asosiy elementda namoyon bo'ladi. U uchun Olov quyidagilarning ramzi:

- 1) o'zgarish va dinamika;
- 2) yaratuvchilik va barbodchilik;
- 3) qarama-qarshiliklarning birligi.

Bunda Olov ushbu olamda barcha narsalarni tartibga keltiruvchi universal tamoyil sifatidagi Logosning fizik metafora va namoyon bo'lish shakli⁴⁹.

An'anaviylik uchun Platon va Aristotel muhim ahamiyatga ega. Xususan, platonizmning ezoterizmi g'oyalarni intellektual intuitsiya orqali anglash, ushbu

⁴⁸ Лосев А.Ф. Очерки античного символизма и мифологии. – Москва: Мысль, 1993. – С.97.

⁴⁹ Гераклит Эфесский. Фрагменты. – Москва: Мусagetъ, 1910. – С.29.

intuitsiya asosida g'oyalarni kishi bevosita mushohada qilishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Platonizm an'anasining ekzoterizm tomoni esa Platonning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari kuzatiladi. Izchil pifagorchi bo'lgan Platon matematikaga alohida e'tibor qaratgan va R.Vaxitovning fikricha, mutafakkir uchun matematika «o'ziga xos teologiya, muqaddas fan»⁵⁰. Aristotel falsafasida esa an'anaviylik ko'proq ratsionalistik tarzda namoyon bo'ladi. Bundan xudoni birlamchi turki sifatida tushunadigan Aristotel teologiyasi kelib chiqadi. Muallif aristotelizmدا ezoterizm mavjud emasligiga qaramay, aynan uning g'oyalari an'anaviylik uchun juda yaqinligini ta'kidlaydi.

Qadimgi yunon falsafasida an'anaviylik mavjud va bu qadimgi Rim madaniyatida o'z transformatsiyasini topgan. Ushbu transformatsiya ayniqsa ijtimoiy-siyosiy va diniy jihatlarida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan rimliklar hayotida ajdodlarga ibodat qilish, ya'ni «mos maiorum» – odat tusiga kirgan avloddan avlodga o'tadigan xulq-atvor normalari. Falsafiy-diniy nuqtai nazardan qadimgi Rim madaniyati an'anaviyligi turli idobatlarida, masalan misteriyalarda namoyon bo'lgan. An'anaviylik kontekstida Rim imperiyasi keng tarqalgan mitraizm alohida ahamiyatga ega. Mitraizmning an'anaviylik xarakteri og'zaki, ezoterik ta'limot va initsiatsiya mavjudligi bilan belgilaganadi. Mitraizmdagi initsiatsiya yetti bosqichdan iborat bo'lgan, har bir bosqich ma'naviy rivojlanishning muayyan darajasini aks etadi. Qadimgi Rimda an'anaviylikni tushunishda stoitsizm va uning Logos ta'limoti katta ahamiyatga ega. An'anaviylik teurgiya va mistitsizm elementlarini birlashtiradigan turli ezoterik xarakterdagi asarlarga asoslangan germetizmда ham keng namoyon bo'lgan. Gnostitsizm bilan bog'liq bo'lgan germetizm mistik kontekstda ilohiy ibtidoni tushunish va bilish uchun ma'naviy ravshanlikga alohida e'tibor qaratadi. An'anaviylik vakillari antik davrda an'ana fenomenining so'nggi namoyon bo'lishi shaklini chuqur metafizik va ezoterik yondashuvga ega neoplatonizm ta'limotida ko'rishadi.

O'rta asrlar davrini ko'rib chiqishda, muallif birinchi navbatda apologetikaga e'tibor qaratadi. Xristian dinini himoya qilishda apologetika antik davr fikri va uning intellektual an'anasiga murojaat qiladi. Masalan, apologet Yustin stoitsizm, peripatetizm, pifagorchilik va platonizmni o'rgangan va o'z apologiyalarida xristian e'tiqodining falsafa bilan mosligini ta'kidlagan. Buning uchun u Logos haqidagi yaxlit ta'limotni ishlab chiqqan. Apologetikaning boshqa vakili Tertullian antik falsafani turli chayqovchiliklar va bid'atlar uchun tanqid qilganligiga qaramay, ushbu falsafaning jiddiy ta'siri ostida bo'lgan. Shu bilan birga, falsafa va xristianlik diniga boshqacha munosabatda bo'lgan apologetlar ham bo'lgan va ular antik an'anani o'zgacha yo'nalishda rivojlantirishgan. Xususan, Aleksandriyalik Kliment falsafa va xristianlikni quyidagi jihatlar orqali sintezigiga uringan:

1. Falsafa xristianlikga qarshi emas, unga tayyorlovi bosqich.
2. Falsafiy bilimda bo'lgan haqiqat xristianlikga qarshi turmaydi, uni to'ldiradi.

An'anaviylik kontekstida O'rta asrlar falsafiy fikrini tahlil qilishda muallif patristikaning yirik vakili – Avgustinning qarashlarini ham ko'rib chiqadi. Avgustin neoplatonizmning emanatsion panteizmini inkor etib, ilohiyini bilish

⁵⁰ Вахитов Р. Платон как метафизик (образ Платона у Рене Генона) // Волшебная гора. – 2005. – №1. – С.142.

mistik xarakterga ega deb hisoblagan va bu neoplatonik yondashuvning o'zgacha turi. Bundan mutafakkir ichki nur kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra, xudo insonga oliy haqiqatni bilish uchun nurni taqdim etadi. Aynan ichki nur orqali qalb yuksaklikga ko'tariladi va Yaratganga qaytadi. Ezoterik jihatlardan tashqari, Avgustin tarixiy rivojlanishning siklizmini ko'llab-quvvatlaydi, chunki u ilk inson yaralishidan boshlab so'nggi kunlargacha tarixning bosqichlarini aniqlab chiqadi.

O'rta asrlar fikri va an'anaviylikda «Areopagitiklar» alohida ahamiyatga ega, chunki ular xristianlikda neoplatonik an'anani oxirgi tusga keltirdi. Avgustin ta'limotidan farqli ravishda, «Areopagitiklar» asosan neoplatonizmga tayanadi va mistik xarakterga ega kompleks kontseptsiyalarni ishlab chiqishgan, zero ularga borliqning iyerarxikligi va ilohiy tartib xos. «Areopagitiklar»dagi borliqning iyerarxik tuzilmasi, bilish jarayoni va apofatizmi an'anaviylik ta'limoti bilan chuqur bog'liq.

Sxolastika boshlanishi bilan neoplatonizmga bo'lgan e'tibor kamayadi va aristotelizmga diqqat kuchayadi. Foma Akvinskiy ta'limotida an'anaviylik aristotelizmni davom ettirish va uni xristianlik ta'limotiga ekzoterik xarakterga ega bo'lgan nazariy holatlarda moslashtirishda namoyon bo'ladi. O'rta asrlar davrida ezoterik ta'limotlarga salbiy munosabat bo'lgan va an'ana aynan ekzoterik namoyon bo'ladi va bu tomizda o'z cho'qqasiga yetadi. Lekin platonizm va neoplatonizm an'analari ham saqlangan va buni M.Ekxart va Bonaventura ta'limotlarida ko'rish mumkin. M.Ekxart platonizm ruhida moddiy olam va ma'naviy olam mavjud va aynan oxirgi ustuvor o'ringa ega, zero ushbu olam ilohiydir, barcha adabiy haqiqatlar esa xudoning niyatiga mos mavjud. Shu bilan birga, uning fikricha, olam ilohiyning namoyon bo'lishidir va aynan xudo butun olamning manbasi, uning energiyasi moddiy olamga kiradi, lekin u o'z mukammalligini yo'qotmaydi. Inson borlig'ining so'ngi maqsadi qalbning ilohiy manba bilan birlashishi, ammo uni bilish faqat «ravshanlashish» yoki intuitsiya orqali amalga oshadi. Bonaventura falsafasi ham shu darajada neoplatonik tusga hamda ezoterik va mistitsistik xarakterga ega. Bundan tashqari, mutafakkir sxolast bo'lganligiga qaramay, uning falsafasi avgustinizm elementlariga ega. Xususan, Bonaventura Xudo nur sifatidagi ta'limotni ishlab chiqqan⁵¹ va bunga Bibliya, platonizm va Avgustin ta'limoti turtki bo'lgan.

O'rta asrlar falsafasidagi an'anaviylik tahlilini muallif averroizmni ko'rib chiqish bilan yakunlaydi. Averroizmning falsafiy tizimi ikki haqiqat kontseptsiyasi, yagona aql va olam abadiyligi masalasida an'anaviylikga qarama-qarshi turadi. Shu bilan birga averroizmda peripatetik an'ana o'z transformatsiyasini topadi. Aristotel ratsionalizmi va uning deizmiga asoslangan averroizm aynan ratsionalizm kontekstida an'anaviylikga yaqin va bu an'anani ekzoterik tushunilishida namoyon bo'ladi.

Sxolastikaning so'ngi davrida Renessans uchun muhim bo'lgan jarayonlar bo'lib o'tgan. Lekin ushbu davrida an'ananing yangi transformatsiyasi – antik va asosan neoplatonik an'ananing qayta tiklanishi kuzatiladi. Shu bilan birga ayrim mutafakkirlar aristotelizm an'anasiga ham murojaat qilishgan. Bunda asosiy

⁵¹ Бонавентура. Путеводитель души к Богу. – Москва: Греко-латинский кабинет Ю.А.Шичалина, 1993. – С.41.

o'ringa M.Fichino ega va M.Sedjvik ta'kidlashicha, aynan Fichino an'anaviylik uchun muhim o'tmishdosh bo'lgan, zero u «philosophia perennis» tushunchasini kiritgan⁵². Neoplatonizmni xristianlik bilan sintezlashuviga va antik fikr va xristian ta'limoti o'rtasida ko'prikn shakllantirishga intilib, Fichino, Sedjvik fikricha, «falsafaga diniy tusga keltirishni xohlagan»⁵³. Aynan shu yerda unga «abadiy falsafa» tushunchasi kerak bo'lgan, chunki ushbu tushuncha falsafa va din uchun yagona ibtido kontseptsiyasini ishlab chiqqan. An'ana transmissiyasini Fichino Sharq madaniyati tomoniga ham ko'rgan, chunki antik fikrning ayrim elementlari Ibn Sino va uning izdoshlari hamda G'azzoliy tomonidan o'zlashtirilgan. Bu esa uning abadiy falsafa kontseptsiyasini madaniy-sivilizatsion nuqtani nazardan kengaytirishga bo'lgan intilishidan dalolat beradi. Renessans tafakkuri perennializmni rivojlantirishda M.Fichino bilan cheklanib qolmaydi, o'xshash g'oyalarni ilgari surgan boshqa mutafakkirlar ham bo'lgan. Xususan, Dj.Piko della Mirandola turli falsafiy va diniy ta'limotlarning sinteziga uringan, uning fikricha ular ilohiy xarakterga ega yagona haqiqatni aks ettirishadi. Renessans davrining boshqa vakili F.Patritsi perennializm g'oyalarini rivojlantirgan, ammo bunda yagona ma'naviy bilim bilan birlashgan platonizm, germetizm va sharqiy kontseptsiyalar bilan cheklangan.

An'anaviylik rivojida Yangi davr murakkab jarayon bo'ladi. Ushbu davrda yirik ijtimoiy va ilmiy inqiloblar o'rin olgan. Yangi davrda shakllangan birinchi muhim an'ana – ratsionalizm, chunki ushbu davr falsafasi o'z g'oyalarini ilohiyga murojaat qilish orqali emas, ong va mantiq bilan asoslagan. Bundan karteziychilik kabi fundamentlar an'ana vujudga kelgan. Ijtimoiy falsafa doirasida esa gobbslik an'ana rivojlangan. Yangi davrning boshqa muhim an'anasini – spinozizm. Karteziychilikda o'z manbasini topgan spinozizm ratsionalizmni panteizm bilan sintezlashtirishga urinadi. Dj.Lokk falsafasi karteziychilikni qabul qilib, Yevropa madaniyatidagi falsafiy va siyosiy fikr rivojiga muhim ta'sir o'tkazgan. Yangi davr falsafiy fikrida Dj.Berkli sub'ektiv idealizm an'anasiga asos solgan va natijada turli mutafakkirlar shu bazada o'z kontspetsiyalarini ishlab chiqishgan.

Frantsuz ma'rifatparvarligi muhim ijtimoiy va siyosiy-falsafiy an'analarga asos solgan va ularning asosiy jihatlari quyidagilarda namonyo bo'ladi:

1. Insonning tabiiy huquqlari kontseptsiyasi.
2. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi.
3. Hokimiyat bo'linishi g'oyasi.
4. Dunyoviy va ilmiy tafakkur tamoyillari.
5. Ijtimoiy taraqqiyot va erkinlik g'oyasi.

Germaniyada Ma'rifatparvarlik davrida ratsionalizm an'anasini davom ettirgan va uni shunday tarzda mutahkamlaganki, inson olamni ratsional bilish orqali tushunishi mumkin, ammo tanqidiy tahlil ham muhim. Ushbu davrda I.G.Gerder tomonidan ishlab chiqilgan tarix falsafasi an'anasini alohida ahamiyatga ega. Mutafakkir tarixiy jarayonni ta'riflash uchun «yoshlik», «o'spirinlik», «etuklik» va «keksayganlik» kabi tushunchalarni qo'llagan. Yangi davrda I.Kant, F.Shelling,

⁵² Седжвик М. Наперекор современному миру: Традиционализм и тайная интеллектуальная история XX века. – Москва: Новое литературное обозрение, 2014. – С.39.

⁵³ Там же.

G.Gegel, I.Fixte asosiy vakillari bo'lgan nemis idealizmi falsafasi ham fundamental ahamiyatga ega.

XIX asr irratsionalizmi falsafiy fikrda inqilobiy burilishni amalga oshirgan, zero mumtoz, ratsional an'analardan irratsionalizmga asosiy e'tibor qaratilgan. XIX asr irratsional falsafa doirasida A.Shopengauer pessimizm va volyuntarizm an'analari asos solgan. Volyuntaristik an'ana original variantda F.Nitsche tomonidan rivojlantirilgan. Bu esa shu konekstda bo'lganki, mutafakkir irodani o'z-o'zini namoyon qilish va imkoniyatlarni amalga oshirishning irratsional intilish sifatida tushungan va bu uning «hokimiyatga intilish» mohiyati. Nitsche falsafasi iroda, intuitsiya va ratsionalizmning tanqidiga katta urg'u qilgan va bu natijada «hayot falsafasi»ni vujudga keltirgan. Ushbu yo'nalishning asosiy vakili A.Bergson «hayotiy jo'shqinlik» tushunchasini kiritgan va mexanistik ratsionallikka muqobil ravishda hayotni intuitivistik nuqtai nazardan tushungan; V.Diltey esa kechinma va bilish kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Mazkur davrda S.Kyerkegor ekzistentsialistik an'anaga asos solgan. Ushbu barcha an'analari XX asr falsafasida namoyon bo'lgan.

Dissertatsiyaning «**Yaxlit doktrinal tizim sifatidagi XX asr G'arb an'anaviyligi**» deb nomlangan uchinchi bobida muallif R.Genonning primordial an'anaviyligi, A.Kumarasvamining madaniy an'anaviyligi, F.Shuonning metafizik an'anaviyligi, Yu.Evolaning elitar an'anaviyligi va S.X.Nasrning islomiy an'anaviyligini o'rgangan.

XX asr G'arb an'anachiligining fundamentini R.Genon (1886-1951) primordial an'anaviyligi tashkil etadi. An'anani Genon o'z talqinida taqdim etib, uni perennializm bilan bog'laydi. Mutafakkir an'anani «u yoki bu yo'l orqali uzatiladigan» deb ta'riflaydi⁵⁴, ammo bunda «haqiqiy an'anaviy xarakterga ega hamma narsa «g'ayriinsoniy» elementning aralashuvi bilan aniqlanadi» deb qo'shimcha qiladi va aynan ushbu jihat primordial an'anani tushunish uchun kalit ahamiyatga ega, zero, U.Dikson ta'kidlashicha, bu «metafizik haqiqat»⁵⁵. Muallif Genon an'anaviyligida primordial an'ana Sharq va G'arbgga ajralishini ta'kidlaydi. Sharqiy an'analarda Genon uchun alohida o'rinni islom an'anasi egallaydi, chunki ushbu an'ana Sharq va G'arb o'rtasida «oraliq holat»ga ega. Bu esa islom an'ananing ichki tuzilmasi sof metafizik, tashqisi esa – diniy xarakterga ega va bu, Genon fikricha, g'arbiy an'anaga mos. G'arbda an'ana katolik xristianlik shaklida mavjud bo'lgan, ammo bugungi kunda G'arbda din ijtimoiy hayotda o'z roli va ahamiyatini yo'qotgan. Sharqda esa an'analari jamiyatning ajralmas qismidir. Genon ijtimoiy stratifikatsiya tarafdori bo'lib, antropologik tengsizlik tamoyili qo'llab-quvvatlaydi, zero kishilar tabiatan bir biriga teng emas va aynan shuni turli g'arbiy egalitaristik kontseptsiyalar inkor etadi. Shuning uchun zamonaviy G'arbning ijtimoiy tuzilmasi aksilan'anaviy xarakterga ega. Mutafakkir bugungi G'arbnii «moddiy sivilizatsiya» deb nomlaydi va mazkur sivilizatsiya ma'naviy qadriyatlarga nisbatan moddiy qadriyatlar ustunlik qilishi, olam va undagi inson

⁵⁴ Генон Р. Общее введение в изучение индусских учений. – Москва: Беловодье, 2013. – С.78.

⁵⁵ Dickson W.R. Rene Guenon and Traditionalism // Handbook of Islamic Sects and Movements. – Leiden: Brill, 2021. – P.589.

o'rnini stsiyentik tushulinishi hamda sekulyarizatsiya xos bo'lgan o'z dunyoqarashining ustuvorligini o'rnatishga intiladi. Bularning barchasi natijada zamonaviy G'arb sivilizatsiyasi tomonidan Sharqni noto'g'ri tushunilishiga olib keldi va oqibatdan ushbu sivilizatsiya chuqur madaniy inqiroz holatiga keldi.

A.Kumarasvaming (1877-1947) an'anaviylik ta'limotini muallif madaniy an'anaviylik deb nomlaydi, chunki faylasuf asosiy diqqat-e'tiborni an'anani tushunish va saqlashni madaniyat fenomenlari bo'lgan san'at, din va simvolikada ko'radi. Bu esa A.Kumarasvami an'anaviylikni madaniy antropologiya bilan yaqinlashtiradi. O'z ishlarida mutafakkir Sharq va G'arb madaniyatlarini solishtirish uchun komparativistikadan foydalanadi. Genon kabi Kumarasvami an'ana mif va din, san'at va simvolizmga namoyon bo'ladigan abadiy an'ana mavjud deb hisoblagan. Tadqiqotchi T.Lyubimova Kumarasvami komparativistikasi turli simvollarni qiyoslash va keyinchalikda ularni talqin qilishga qaratilgan deb ta'kidlaydi⁵⁶. Ushbu simvollarni esa faylasuf aynan san'anda ko'radi va ularning Sharq va G'arb xalqlarining miflari, dinlari bilan aloqasi ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, Kumarasvami «san'at tarixga ega bo'lmasligi mumkin, shu kabi ham metafizika; tarix tamoyillarga emas insonlarga oid» deb hisoblaydi⁵⁷. Bundan kelib chiqadiki, san'at an'anani namoyon bo'lish shakli, lekin quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

1. San'atning botiniy xarakteri.
2. San'atning simvolik xarakteri.
3. San'atning transformatsiyalashtiruvchi kuchi.

Kumarasvami san'atni an'ana shakli deb belgilab, uning ikkilamchi xarakterini ko'rsatadi:

1. Insonga estetik zavq beruvchi tashqi, ekzoterik.
2. Faqat ayrim insonlar tushunishi mumkin bo'lgan an'anaviy bilim va metafizik haqiqatlarni o'z ichiga olgan ichki, ezoterik.

Kumarasvaming komparativistik yondashuvi madaniyatga diqqat-e'tibor bilan ajlarib turadi. Buni esa uning «Sharq-G'arb qarama-qarshiligi geografik emas, ko'proq madaniy xarakterga ega: ushbu qarama-qarshilik Sharqda saqlanib qolayotgan an'anaviy yoki oddiy turmush tarzini G'arbda hukm surayotgan zamonaviy, nodattiy turmush tarzini qarshi qo'yish»⁵⁸ degan fikrida ko'rinib turmoqda.

An'anaviylikning boshqa yirik vakili Frityof Shuon (1907-1998), uning ta'limoti muallif tomonidan metafizik an'anaviylik deb nomlangan. An'anaviylikni tadqiq etuvchi yirik mutaxassis M.Sedjvik uning kontseptsiyasini «sufiylik an'anaviyligi»⁵⁹ deb nomlagan bo'lsada, muallif aynan metafizik an'anaviylikni

⁵⁶ Любимова Т.Б. «Вечная философия» единой традиции в символах // Vox. Философский журнал. – 2018. – №24. – С.15-38.

⁵⁷ Kumarasvam A. Восток и Запад. Религия, мифология, символика, искусство. – Москва: Беловодье, 2018. – С.20.

⁵⁸ Там же. С.96.

⁵⁹ Сэдживик М. Наперекор современному миру: Традиционализм и тайная интеллектуальная история XX века. – Москва: Новое литературное обозрение, 2013. – С.11.

to'g'ri deb hisoblaydi, chunki Shuon o'z diqqat-e'tiborini aynan an'anaviy metafizika va uning asosiy holatlarga qaratgan. Shuon an'anaviylikda markaziy o'rinni transtsendent haqiqatning mohiyati, birlamchi sabablar, oliy reallik va ma'naviy olamning tabiatini aks ettiruvchi ta'limot sifatidagi metafizika egallaydi. Bunda esa uning turli spekyulyatsiya, mental sxemalar bilan ishlaydigan va universallikga da'vo qiladigan falsafadan fundamental farqi bilinadi. Shuon uchun faqat metafizika universal xarakterga ega, zero u an'anadan kelib chiqadi va uning ezoterik tomoniga urg'u beradi. Faylsuf har bir dinda dogmatik ta'limot mavjudligi va aynan shu chegaralovchi omil deb ta'kidlaydi, ammo ezoterizm ushbu chegaralarni olib tashlaydi, zero u dinlarning transtsendent yagonaligini ta'minlaydi. Shuon qayidagi muhim tushunchalarni ko'rib chiqadi:

- 1) abadiy falsafa (philosophia perennis);
- 2) abadiy donishmandlik (sophia perennis);
- 3) abadiy din (religio perennis).

Shu bilan birga, Shuonning ta'kidlashicha, abadiy donishmandlik diniy ta'limotda Vedanta kabi tizimli bayon etilishi mumkin. Biroq, bu bayon muqaddas xarakterga ega, shuning uchun bunday diniy matnning germeneytikasi ancha murakkab va oldindan tayyorgarlikni talab qiladi. Shunga qaramay, Shuon sintez yo'llarini topishga harakat qildi va metafizikaning o'ziga ta'rif berib, uni quyidagi tomonlarini belgilab O'tgan:

- 1) primordialligi;
- 2) universalligi;
- 3) mustaqilligi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Shuon an'anaviylikda simvolizm ma'naviy bilishning muhim jihati bo'lib, u transsendent voqelik bilan birlashishga yordam beradi; ya'ni simvollar moddiy dunyo va ma'naviy dunyo o'rtasidagi ko'prikdir. Shuningdek, Genon va Kumarasvami kabi F.Shuon ham G'arb sivilizatsiyasini tanqid qilib, uning inqirozli holatini ko'rsatib o'tadi, uning boshlanishini Renessans dunyoqarashida ham ko'radi. Shuon G'arb uchun inqirozdan chiqishning yagona yo'li sifatida an'ananing tiklanishini ko'radi, chunki u bu borada o'zi ishlab chiqqan dinlarning transsendent birligi konsepsiyasiga asoslanadi.

An'anaviylik doktrinal tizim sifatida o'zining yetarlicha tanqidiy yo'nalishlariga va hatto buzilishlariga ega bo'lib, bunga M.Sedjvikning ta'kidlashicha, an'anaviylikning siyosiy versiyasi bo'lgan⁶⁰ Yulius Evola (1896-1974) elitar an'anaviylik misol bo'la oladi. Yu.Evola qarashlarida an'ana yaqqol ifodalangan siyosiy tus kasb etadi, bu esa uning zamondoshlari o'rtasida ziddiyatli munosabatni keltirib chiqardi, keyingi an'anachilar esa uni tanqid ostiga olishdi. Evola Genon asos solgan an'anani tushunishdan chetga chiqmasdan, uning muqaddasligini va undan kelib chiqadigan universal, ijtimoiy va individual tartibni

⁶⁰ Сэджвик М. Наперекор современному миру: Традиционализм и тайная интеллектуальная история XX века. – Москва: Новое литературное обозрение, 2013. – С.11.

tan oladi. Evola asrlar davomida mavjud bo'lgan ijtimoiy tartib, iyerarxiya, turmush tarzi o'zgartirilmasligi, u statik holatda bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Har qanday o'zgarish Evola uchun an'anaviylikka zid hodisadir. Genon, Kumarasvami va Shuon ta'limoti zamonaviy sivilizatsiyaning ma'naviy inqiroziga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, Evola buni siyosiy inqirozga aylantiradi va shu paytgacha mavjud bo'lgan individual va ijtimoiy hayotning an'anaviy tuzumining yo'qolishi ko'plab siyosiy halokatlarning sababi deb hisoblaydi. An'anaviy jamiyatda, Evolaning fikricha, oliy siyosiy vazifa an'analarni saqlovchi ma'naviy elita zimmasiga yuklangan. Ma'naviy elitani an'analarni saqlash va davom ettirish, an'anaviy ijtimoiy tartibni ta'minlash bilan bir qatorda, Evola kishilar uchun eng oliy ideal, namuna rolini belgilaydi. Shu bilan birga, bu ma'naviy elita o'zida an'anaviy bilim, ma'naviyat va axloqni, ularga chuqur sadoqatni sintez qilishi kerak edi, bu esa jamiyatning rivojlanishini an'anaviy vektorda bo'lishini ta'minlaydi. Sharq Evola uchun o'zining ma'naviy ildizlarini yo'qotgan G'arb sivilizatsiyasini tanqid qilish uchun metasiyosiy resurs, ya'ni an'ana va shunga mos ravishda o'z rivojlanishining normal vektoridir. Sharq va G'arb madaniyatlari muloqoti aslida Evola uchun imkonsiz bo'lib qoladi, chunki uning tushunchasida Sharq G'arb uchun shunchaki tanqidiy ko'zgu emas, balki metasiyosiy resursdir. Shu bilan birga, Yu.Evolaning elitar an'anaviyligi mohiyatan an'anaviylik ta'limotidan chekinishdir, chunki Genon, Kumarasvami, Shuon va boshqalar umuman siyosiy faoliyat bilan shug'ullanmaganlar hamda an'anaviylikni inson va jamiyatning ilohiy haqiqatni anglashida ma'naviy tiklanish va takomillashtirish kontekstida ko'rib chiqdilar.

Doktor Said Husayn Nasr (1933-yilda tug'ilgan) islom an'anachiligini shakllantirgan va hozirgi kunda ham hayot bo'lgan yagona yirik an'anachi bo'lib, AQShning Jorj Vashington universitetida ishlaydi. S.X.Nasr Genon an'anaviyligi va perenniallik ruhida Sharq va G'arb madaniyatlari an'analari mavjud bo'lgan universal metafizik tamoyillar, abadiy haqiqat mavjud, deb hisoblagan⁶¹. Nasr o'z asarlarida bu haqiqatni "Sofiya" yoki abadiy donishmandlik deb ataydi, u turli madaniyatlarda turlicha ta'riflanadi, masalan, hinduiylikdagi sanatana dharma yoki islomdagi al-hikma al-xolida⁶². Biroq Nasr boshqa yirik an'anachilardan farqli o'laroq, sinkretizmga berilmaslikka va o'z metodologiyasining aniq, bir-biriga zid bo'lmagan mantig'ini saqlab qolishga intiladi. Ammo shuni ta'kidlash muhimki, masalan, Genondan farqli o'laroq, u falsafani an'ananing bir qismi, abadiy haqiqatni ifodalash shakli deb biladi. Nasr fikricha, an'ananing boshqa shakllarini mutlaqlashtirish mumkin emas, chunki ularning har biri o'z kontekstida mutlaq ko'rinadi, ammo bunday emas, chunki faqat Xudo mutlaqdir. U bundan muhim metodologik tamoyilni – mutlaqning nisbiyligini keltirib chiqaradi.

S.X.Nasr an'anaviylik ruhida G'arb sivilizatsiyasini ma'naviy qadriyatlarning yo'qolishi va tabiatni va umuman dunyoni tushunishda mexanik-materialistik


⁶¹ Nasr S.H. Knowledge and the Sacred.– Edinburgh: Edinburgh University Press, 1981. – P.68.

⁶² Ibid.

yondashuvning ustuvorligi uchun tanqid qiladi. Shunisi qiziqki, Nasr uchun zamonaviy G‘arb sivilizatsiyasi Yaratganga qarshi isyon ko‘targan va uning rolini o‘z zimmasiga olishga urinayotgan Prometey sivilizatsiyasidir. Nasr fikricha, u yoki bu din universal haqiqatning namoyon bo‘lishidir va har qanday din o‘z mazmunida aynan shu haqiqatni o‘z ichiga oladi. Biroq u bugungi kunda aynan islom va musulmon sivilizatsiyasi alohida o‘rin tutgan Sharqda saqlanib qolgan. Buni Nasr islom an‘anasi Sharq va G‘arb an‘analari o‘rtasida oraliq mavqeni egallashini ko‘rsatib, u ham teologik, ham metafizik jihatlarni, ya‘ni mohiyatan ekzoterik (shariat, fiqh) va ezoterik (tasavvuf) jihatlarni o‘z ichiga oladi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, Nasr musulmon madaniyati sharoitida dunyoviy ilm-fan va ma‘naviy ta‘limotlar uyg‘un rivojlanganligini va buning asosini aynan islom an‘anasi tashkil etganligini qo‘shimcha qiladi, shuningdek, islomdagi an‘ana nafaqat teologik, balki falsafiy (falsafa-hikma) xususiyatga ham ega bo‘lganligini ta‘kidlaydi⁶³.

Nasr ta‘limotida antropologik tendensiyalar yaqqol ifodalanganligi bilan ajralib turadi, shuningdek, u an‘anaga kirish faqat intellektual yoki ma‘naviy elitada mavjud deb hisoblamaydi, har bir kishi zarur ma‘naviy tayyorgarlikdan so‘ng an‘anaga bag‘ishlanishi mumkin. Buni yuqorida ko‘rib chiqilgan an‘anachilarning «elita» va «iyerarxiya» kabi tushunchalarni qo‘llashni taqqoslash asosida ishlarining kontent-tahlili misolida ko‘rish mumkin.

2-rasm. Kontent-tahlil natijalari



S.X.Nasrning islom an‘anaviyligi R.Genonning primordial an‘anaviyligi va F.Shuonning ezoterik an‘anaviyligiga asoslanib, o‘tmishdoshlar qoldirgan ko‘plab «o‘tkir burchaklar»ni tekislab, eng mantiqan izchil konsepsiyani ishlab chiqadi. Shu bilan birga, muallif mazkur bobda or‘ganilgan mutafakkirlarning qiyosiy tahlilini quyidagicha ko‘rsatdi:

⁶³ Nasr S.H. Knowledge and the Sacred.– Edinburgh: Edinburgh University Press, 1981. – P.67.

1-jadval.
An'anaviylik oqimining asosiy vakillari qarashlarini qiyoslash

Jihat	R.Genon	A.Kumarasvami	F.Shuon	Yu.Evola	S.H.Nasr
Asosiy g'oya	Primordial an'ana	San'at va ramzlar ma'naviy haqiqat va an'ana ifodasi sifatida	Metafizik universalizm, dinlarning transsendent birligi	Elitarizm an'ananing siyosiy ko'rinishi sifatida	An'anani saqlash va uni G'arb dunyoviyligidan himoya qilish
Zamonavi davrga munosabat	An'ananing tanazzuli sifatida keskin tanqid	Ramziy tafakkurning yo'qolishi sifatida tanqid	Muqaddaslikka qaytishga urg'u berilgan tanqid	Ma'naviy tabaqalarga murojaat qilishdan keskin tanqid	Dunyoviylik va materializm tanqidi
Dinga munosabat	Barcha haqiqiy dinlar yagona haqiqatning shakllaridir	Sharq an'analari Yagona dinni ifodalash shakli sifatida	Din transsendent Markazga yo'l sifatida.	Dinsiz an'ana	Islom universal an'ana, boshqa an'analardan bilan muloqot sifatida
An'anaviylik shakllari	Primordial an'anaviylik	Madaniy an'anaviylik	Metafizik an'anaviylik	Elitar an'anaviylik	Islom an'anaviyligi
Sharqqa munosabat	An'analardan saqlovchisi	Ramziylik manbai	Ma'naviy yo'l sohibi	An'anaviy tartib manbai	Muqaddas fan manbai
G'arbgacha munosabat	Moddiy sivilizatsiya	An'anaviy madaniyatni yo'qotgan	Sekulyar sivilizatsiya	An'anaviy tartibni yo'qotgan	Fan va e'tiqod o'rtasidagi aloqani yo'qotgan

Dissertatsiyaning «**Yangi O'zbekiston taraqqiyotida an'anaviylikning roli va o'rnini**» deb nomlangan to'rtinchi bobida muallif o'zbek ma'naviy evolyutsiyasining asosiy tendentsiyalari shakllanishidagi an'anaviylikning Qadimgi Sharq paradigmalari, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida arab-musulmon an'analarning namoyon bo'lishi hamda Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston zamonaviy ma'naviy taraqqiyotida an'anaviylik sintezini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Muallif zardushtiylik va buddaviylik kabi an'analardan o'zbek ma'naviy evolyutsiyasining asosiy tendentsiyalarini shakllantirish nuqtai nazaridan qadimgi

Sharq an'anaviylik paradigmalarining qanday namoyon bo'lishini ko'rib chiqadi. Tadqiqotchi S.Rahimovning ta'kidlashicha, «Avesto»ning o'zi zardushtiylik izdoshlari orasida ikkita – ekzoterik va ezoterik tomonlarga ega bo'lgan⁶⁴. Birinchisi uchun zardushtiylik tarix falsafasidagi siklizmni misol qilib keltiradi. Zardushtiylik uchligi bunga yana bir misol bo'la oladi. Bundan tashqari, «Avesto» oilaviy munosabatlarni ham tartibga solgan, deb ta'kidlaydi K.Saidova⁶⁵. Tadqiqotchi R.Ozodboyev zardushtiylikdagi adolat haqidagi qarashlarni antik davr mutafakkirlari qarashlariga mosligini qayd etadi⁶⁶. Shuningdek, zardushtiylik an'anasining ekzoterik tomonini o'ziga xos «poklik kodeksi» aks ettiradi. Zardushtiylikda mehnatga juda katta e'tibor berilgan, chunki inson farovonligi aynan undan kelib chiqadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek madaniyatida mehnat har bir inson hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, aksiologik qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Bu, masalan, Markaziy Osiyoning falsafiy merosida, xususan, Voiz Koshifiy qarashlarida o'z aksini topdi, u mehnatsevarlik insonning kamoloti va o'z-o'zini bilishini aks ettiradi⁶⁷, deb hisoblagan.

Zardushtiylikning ezoterik tomoni «Ilm-e Xshnum» (Ilm-e Khshnoom) ta'limoti sifatida ma'lum bo'lgan ushbu ta'limotni Avesto matnlarini o'rganish va talqin qilishga qo'llash orqali ochib beriladi⁶⁸. Angro-Maynyu va Spenta-Maynyu nafaqat vayronagarchilik va ezgulikni, balki doimiy kurash jarayonida bo'lgan koinot kuchlarni ham aks ettirishi misolida zardushtiylikda chuqur simvolizm mavjudligini ko'rish mumkin. Bu kurashning markazi insonning o'zi bo'lib qoladi, shuning uchun ham uning ma'naviy ma'rifatga erishishi zarur. Shuningdek, zardushtiylik an'anasining ezoterik tomoni estetikasida ham namoyon bo'ladi. G.Mahmudova zardushtiylik ta'limotining barcha jabhalarida kuzatiladigan nur va zulmat kurashining ezoterik jihatlarini aks ettirgan holda "Go'zallik va Ezgulik birligi qonuni buzilgan joyda buzg'unchilik, yovuzlik va Yaramaslik dunyosi boshlanadi»⁶⁹ deb ta'kidlaydi. Zardushtiylikning ezoterik tomonini ko'rib chiqish doirasida, shuningdek, kosmik tartib va uyg'unlikni aks ettiruvchi Asha qonuniga ham e'tibor qaratish kerak, ammo bu Axuramazdadan chiquvchi ne'matlarning saqlanishiga hissa qo'shish uchun ushbu kosmik tartibni qo'llab-quvvatlash insonning burchi ekanligidan iborat axloqiy tamoyil hamdir⁷⁰.

⁶⁴ Рахимов С.Х. Философско-эстетические идеи зороастризма: дисс..докт.филос.н. – Душанбе, 2007. – С.16.

⁶⁵ Саидова К.У. Парадигма экзистенциального опыта семьи как фактор компаративистского анализа на Востоке и Западе: дисс..докт.филос.н. (DSc). – Ташкент, 2022. – С.31-32.

⁶⁶ Ozodboyev R.R. G'arb va Sharq olimlarining adolat haqidagi qarashlarining ijtimoiy, falsafiy tahlili // Fundamental tadqiqotlar jurnali. – 2023. – №9. – B.23.

⁶⁷ Хусайн Воизи Кошифӣ. Футувватномаи султони. Ахлоқи муҳсинӣ. Рисолаи Ҳотамия. – Душанбе: Адиб, 1991. – С.99.

⁶⁸ Living Zoroastrianism. Urban Parsis Speak About Their Religion. – London and New York: Routledge, 2006. – P.239.

⁶⁹ Махмудова Г. Эстетические идеи зороастризма. – Ташкент: Noshir, 2012. – С.17.

⁷⁰ Boyce M. Zoroastrians. Their Religious Beliefs and Practices. – London, Boston and Henley: Routledge & Kegan Paul, 1979. – P.133.

O'zbek ma'naviyati evolyutsiyasiga muhim ta'sir ko'rsatgan yana bir yirik sharqona an'ana o'z davrida Kushon imperiyasining davlat dini hisoblangan buddaviylik edi. Buddaviylikning Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarga tarqalishida Buyuk Ipak yo'li asosiy rol o'ynadi, chunki u nafaqat savdo-sotiq yo'li, balki u orqali madaniyatlararo almashinuv, turli Sharq va G'arb an'analarning bir-biriga singishi amalga oshirildi. Buddaviylik Markaziy Osiyo mintaqasiga kelib, turkiy xalqlar madaniyati bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Yu.Rerix buddaviylik matnlarining mahalliy adabiy tillarga tarjima qilinganligini, umuman olganda, buddaviylikning mintaqqa san'ati va me'morchiligiga ta'siri sezilayotganligini ta'kidlaydi⁷¹. Bugungi kunda zamonaviy O'zbekiston hududida ko'plab buddaviylik me'moriy yodgorliklari - ibodatxona va monastirlar mavjud. Buddaviylikning haykaltaroshlik va tasviriy san'atga ta'siri ham namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, bu ta'sir ko'proq zamonaviy Termiz hududida ko'rinmoqda⁷². Buddaviylik an'anasi keyinchalik paydo bo'ladigan boshqa bir an'anaga – tasavvufga o'zining madaniy ta'sirini o'tkazdi. Ikkala an'ana ham mistisizmga urg'u berib, Haqiqatni anglash yo'lida ma'naviy kamolotga chorlaydi. Shu bilan birga, so'fiylik bu yo'lda kishidan sabr-toqatni talab qiladi, bu so'fiylar ta'limotining asosiy kategoriyalaridan biridir. Buddaviylik esa insonni kishilarni empirik borliqqa bog'lab qo'yuvchi va uning ma'naviy taraqqiyoti hamda sansaradan ozod bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy «qorong'ilik» (klesha) yoki "zanjir" (samyo'jan)lardan biri bo'lgan "avidya"ni yengishga undaydi. Odamdan avidiyani yengish uchun mukammal sabr-toqat (kshanti) egallash kerak. Bundan tashqari, «paramit»ardan biri bo'lgan sabr (kshanti) matonat (virya) talab qiladi, tasavvuf Allohni bilish yo'lida shunga o'xshash talablarni ilgari suradi. Ammo buning uchun har ikkala an'ana ham ehtiros, aloqalar, dunyoviy tashvishlardan xalos bo'lishni zarur deb hisoblaydi, chunki ular ma'naviy ma'rifat yo'lidagi to'siqlardir, sodda qilib aytganda – insonni asketizmga kirish lozim.

Umuman, Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududida madaniyatning rivojlanishi bevosita Birinchi va Ikkinchi Renessans bilan bog'liq bo'lib, bu yerda an'ananing keyingi transformatsiyasi namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Renessans yoki Uyg'onish davri ayrim xalqlargagina berilgan oliy yuksalish va taraqqiyot davri ekanini ta'kidlaydi⁷³.

Islom an'anasining kirib kelishi o'zbek ma'naviy evolyutsiyasi vektorini o'zgartirdi, bunda an'analarni translyatsiya qilish antik merosning arab va fors tillariga tarjimalari asosida amalga oshirildi. Islom an'anasi ilmiy va diniy bilimlarning uyg'unlashuvi uchun qulay sharoit yaratdi, bu esa o'z navbatida antik an'ananing o'sha davr Markaziy Osiyo an'anasiga singib ketishiga ta'sir ko'rsatdi.

⁷¹ Рерих Ю.Н. Тибет и Центральная Азия. – Самара: Изд-й дом «Агни», 1999. – С.22.

⁷² Хакбердиев К., Нажмиддинова Н. Распространение буддизма в Узбекистане // Builders of the future. – 2022. – Vol.2. – No.2. – С.299.

⁷³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.5.

Shuning uchun ham yirik an'anachilar Sharq va G'arb o'rtasida oraliq o'rinni egallagan islom an'alariga katta e'tibor qaratishgan, chunki u haqiqatan ham sivilizatsiyalar o'rtasidagi ko'prikkaga aylangan. J.Altayev va J.Imanbayevalar ham buni alohida ta'kidlaydilar⁷⁴.

Islom ekzoterizmi va ezoterizmi o'zaro uyg'unlikning yuqori darajasiga erishadi va shuning uchun ham G'arb an'alarining kuchli muqobiliga aylanadi. Islom ekzoterizmi nuqtayi nazaridan an'anaviylik rakursida G'arb tomonidan butunlay yo'qotilgan an'anaviy madaniyatning xususiyatlari mavjud, xususan:

1. Ekzoterizmning ezoterizmga asoslanganligi.
2. An'ananing doimiy konstanta sifatidagi barqarorligi, uning hayotning barcha sohalariga uyg'un kirib borishi.
3. An'ananing yaqqol ifodalangan va haqiqiy ijtimoiy-tartibga soluvchi roli.
4. An'ananing ma'naviy jihatlarning real hayotda namoyon bo'lishi, an'ana ko'rsatmasi va yo'liga aniq amal qilish.

Antik an'ana arab-musulmon madaniyati doirasida o'z transformatsiyasini topdi, ammo shu yerda uning negizida o'ziga xos, yaxlit dunyoqarash shakllandi, u umuman Markaziy Osiyoning ilm-fani, falsafasi va madaniy taraqqiyoti bilan uyg'unlashdi, buni Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalar kabi dunyoga mashhur mutafakkir-olimlarning falsafiy tizimlari misolida ko'rish mumkin. Madaniy indentiklikka chuqur ta'sir ko'rsatgan va bu ta'sir hozirgi O'zbekistonda ham namoyon bo'layotgan tasavvuf alohida o'rin tutadi. Tasavvuf an'anasi madaniyatlararo fenomen hisoblanadi. Bu bugungi kunda ham turkiy xalqlar integratsiyasi doirasida o'ta dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqida qadimiy turkiy davlat asoschilaridan biri Bilga Xoqon so'zlarini keltirdi: «Ey turkiy elim, o'zligingga qayt, o'zingni angla — yanada yuksalgaysan!»⁷⁵.

Tasavvuf madaniyatlararo muloqot va integratsiya uchun ma'naviy asos yaratadi, madaniyatlararo muloqot jarayoni muammosini esa, muallifning fikricha, til hal qiladi va bunga faylasuf B.Karimov alohida e'tibor qaratib, o'rta turk tiliga oid tadqiqotlar olib boradi⁷⁶.

Ikkinchi Renessans davri mintaqaning ijtimoiy-madaniy va ilmiy-falsafiy hayotining faol rivojlanishi davri bo'lib, bunga Amir Temur faoliyati ham turki bo'ldi. Shu bilan birga, bu Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro almashinuvga yordam bergan madaniyatlararo aloqalar kontekstida ham namoyon bo'ldi. An'ananing ekzoterik namoyon bo'lishi kontekstida davlatni boshqarish mexanizmi markazlashgan va tartibga solingan edi. Bu ayniqsa «Temur tuzuklari»da yaqqol aks etgan bo'lib, unda u davlat boshqaruvining butun

⁷⁴ Алтаев Ж.А., Иманбаева Ж.М. Диалог Востока и Запада в арабо-мусульманской культуре // Эл-Фараби. – 2021. – №4(76). – С.32, 36.

⁷⁵ <https://president.uz/ru/lists/view/6831>.

⁷⁶ Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Усредненные языки: попытка решения мировой языковой проблемы. – Ташкент: Фан, 2008.

mexanizmini va 12 tabaqani tavsiflaydi, birinchi bo‘lib u sayyidlar, ulamolar, shayxlar va olimlarni tilga oladi⁷⁷. Ezoterik jihatdan esa an‘ana diniy va falsafiy tafakkurda namoyon bo‘ladi, ilgari yaratilgan g‘o‘yalarga transformatsiyalashtiradi. Masalan, Taftazoniy Forobiy, Ibn Sino, Roziy, Tusiy va boshqalarning g‘oyalarining kompleks korpusini qayta ko‘rib chiqadi, nafaqat teologik fikr, balki Aristotel an‘anasi ta‘siriga uchragan o‘z yondashuvlari va nazariyalarini shakllantiradi. Aristotel va umuman antik an‘ananing tizimli davomi nafaqat Taftazoniy misolida, balki «Sharq Ptolomeyi» – Ali Qushchi misolida ham keltirish mumkin, zero u ham Aristotel merosiga murojaat qilgan, ayniqsa astronomiya kontekstida, u Stagiritning naturfalsafasini rad etgan. Antik an‘ana Yusuf Qorabog‘iy dunyoqarashida ham transformatsiyaga uchragan, u dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga determinizm nuqtayi nazaridan yondashgan⁷⁸. An‘ananing diniy sinishi esa tasavvuf doirasida o‘zining eng yuqori darajasiga ko‘tarildi, bunga Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy merosi, ayniqsa, Xoja Ahror Valiy ta‘limotida yorqin misol bo‘la oladi. Ikkinchi Renessans davrida tasavvuf an‘anasi yangi mazmun bilan boyidi va bu o‘zbek xalqi va butun Markaziy Osiyoning ma‘naviy evolyutsiyasi va madaniy indentikligida o‘z aksini topdi, bu esa madaniyatlararo integratsiya, Sharq va G‘arb ichidagi madaniyatlar muloqoti uchun keng poydevor yaratdi.

Birinchi va Ikkinchi Renessansning tarixiy merosi bugungi kunda Uchinchi Renessans uchun poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda, deb ta‘kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev⁷⁹. XIX asr so‘ngra XX asr sivilizatsiya, shu jumladan, Markaziy Osiyo madaniyati rivojlanishining keyingi tarixiy vektorini belgilab bergan, ammo shu bilan birga, o‘zbek madaniyatining ma‘naviy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatgan global xarakterdagi keng ko‘lamli transformatsiyalar davridir. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik hayotning barcha sohalarini modernizatsiya qilishga, shu bilan birga, asrlar davomida shakllangan islom an‘analarini saqlab qolishga qaratilgan edi, ya‘ni jadidlar an‘anaviy qadriyatlar va yangicha yondashuvlarni birlashtirish orqali islomni zamonaviy voqelikka moslashtirishga intildilar. Jadidchilik turkiy madaniyat muhitida vujudga kelib, unda keng tarqalib, madaniyatlararo va shu bilan birga integratsiyalovchi fenomenga aylandi. Jadidchilikning yirik namoyondasi Abdurauf Fitratning ta‘kidlashicha, «boshqa xalqlar allaqachon turli taraqqiyot yo‘llaridan o‘tgan, biz esa ularning tajribasini o‘zlashtirishimiz, e‘tiqodimizga zid bo‘lmagan foydali jihatlarni olishimiz kerak»⁸⁰. Fitrat, aslida, o‘zi yashagan jamiyat chuqur inqiroz holatida ekanligini, uning fikricha, undan faqat ta‘lim va ma‘rifat, dunyoviy va diniy bilimlar uyg‘unligi orqali chiqish

⁷⁷ Temur Tuzuklari. <https://www.temurtuzuklari.uz/oz/clause/35>.

⁷⁸ Ибрахимов Б.Б. Общественно-философская мысль в Средней Азии (XVI-XVIIв.) // Молодой ученый. – 2015. – №3(83). – С.1002-1005.


⁷⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.225.

⁸⁰ Fitrat A. Tanlangan asarlar. 5-jild. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010. – B.108.

mumkinligini tushunar edi. Ko‘rinib turibdiki, mutafakkir jamiyatni modernizatsiya qilish zarurligini, shu bilan birga an‘analarni saqlab qolishni ham ta‘kidlaydi. Sovet hokimiyati Markaziy Osiyo hududida total diktatura o‘rnatganiga qaramay, shakllangan an‘analar saqlanib qoldi va jamiyatning madaniy identikligida yashashda davom etdi va O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qayta tiklandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi o‘z taraqqiyotining yangi yo‘lidan dadil bormoqda, bu Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan quyidagi g‘oya asosida amalga oshirilmoqda: «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari»⁸¹.

Aniq jihatlarida esa bu Yangi O‘zbekiston strategiyasi va «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, ushbu g‘oyaning fundamental tamoyili «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili hisoblanadi, ya‘ni mamlakat va butun Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida yangi davrga evolyutsion yo‘l bilan harakat amalga oshiriladi. Bu yerda an‘anaviylik muhim o‘rin tutadi, chunki u ham nazariy, ham amaliy jihatdan quyidagilarga e‘tibor qaratadi:




Shunday qilib, an‘anaviylik Uchinchi Renessans ostonasida bo‘lgan O‘zbekiston uchun ham madaniy ildizlarni, ham zamonaviy tahdidlarni hisobga

⁸¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.

olgan holda muvozanatli va barqaror kelajakni rivojlantirish uchun muhim asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, muallif tomonidan respublikaning turli hududlaridan 505 nafar respondentni qamrab olgan sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi (48% ayollar, 52% erkaklar). Tadqiqot 2024-yilning yanvar-fevral oylarida o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat.



O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati madaniyat va ta’limda an’anaviy yondashuvlarni zamonaviy usullar bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashini ko‘rish mumkin. Ularning fikricha, bu jamiyatni boyitadi va o‘zlikni saqlab qolishga yordam beradi.

Muallif tomonidan ushbu tadqiqotda aniqlangan kontekst va aniq amaliy tadqiqotlar doirasida an’anaviy va zamonaviy omillarning madaniy rivojlanishga ta’sirini o‘rganish maqsadida quyidagi formula bilan tavsiflanadigan model taklif etiladi:

$$\frac{dC}{dt} = \alpha T + \beta M - \gamma C$$

Bu yerda asosiy parametrlar quyidagilardir:

T - o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar (ekskursiyalar, ko‘rgazmalar) soni;

M - madaniy kontentdan foydalanish uchun raqamli platformalardan foydalanadigan aholi foizi;

C - madaniyat muassasalari (teatrlar, muzeylar, kutubxonalar)ga tashrif buyurish darajasi.

$\frac{dC}{dt}$ ma'lum bir davrda madaniy rivojlanish darajasining o'zgarishini aks ettiradi, shu bilan birga, agar madaniyat rivojlansa, biz ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lamiz va agar tanazzul kuzatiladigan bo'lsa, bu ko'rsatkich salbiy bo'ladi. O'z navbatida, ular quyidagilarni ko'rsatuvchi koeffitsiyentlarni ifodalaydi:

α - madaniy taraqqiyotning an'anaviy qadriyatlardagi o'zgarishlarga sezgirligi va αT esa shuni ko'rsatadiki, an'analar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, madaniy taraqqiyot uchun ijobiy samara shunchalik yuqori bo'ladi;

β - zamonaviy g'oyalar va texnologiyalarning madaniy taraqqiyotga ta'sirining sezgirligi, shu bilan birga zamonaviy tendensiyalarning madaniy taraqqiyotga qo'shgan hissasini aks ettiradi;

γ - madaniyatning rivojlanish yoki tanazzulga uchrash tezligi, bunda γC muhim integral ko'rsatkichga aylanadi.

Muallif 2020-2023 yy. uchun quyidagi ma'lumotlarni solishtiradi:


2-jadval.

2020-2023yy. uchun ko'rsatkichlar statistikasi⁸²

Yil	T	M	C	dC/dt
2020	11.28	0.57	2.33	-7.08
2021	4.27	0.64	5.94	3.58
2022	3.29	0.71	6.38	0.47
2023	27.25	0.78	7.04	0.66

Yuqorida taklif etilgan formula asosida quyidagi dinamika keltirib chiqarildi:

3-rasm. 2020-2023 yillarda O'zbekiston madaniy taraqqiyotida an'anaviy va zamonaviy omillar ta'sirining dinamikasi



2020-yildan boshlab, pandemiyaning salbiy sharoitlariga qaramay, an'anaviy madaniy tadbirlar o'tkazildi, ammo ushbu sharoitlarning ta'siri tadbirlarga tashrif buyuruvchilarga ta'sir ko'rsatdi va raqamli platformalardan foydalanish yanada dolzarblashdi. 2023-yilga kelib, asta-sekin o'sish kuzatilmoqda, bu an'anaviy

⁸² Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik materiallardan olingan.

formatdagi madaniy tadbirlarga qiziqishning tiklanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish yoshlarni jalb qilishga muvaffaq bo'ldi. Bularning barchasi mamlakatning tarixiy tajribasi kontekstida madaniy taraqqiyotni saqlash va mustahkamlash uchun an'anaviy va zamonaviy omillarning sinergiyasi zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu hisob-kitoblar natijalari Yangi O'zbekiston madaniy taraqqiyotini an'anaviylik bilan sintezlash kontekstida tahlil qilish va prognozlash uchun xizmat qilishi mumkin. Ya'ni, madaniy rivojlanish darajasi ortib borayotganini bilgan holda, yangi madaniy tadbirlar yoki tashabbuslarni rejalashtirish mumkin. Biroq, agar C o'sishda davom etsa, bu madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan muvaffaqiyatli dasturlarning ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Agar γ degradatsiyasining ta'siri sezilarli bo'lsa, uni qanday qilib minimallashtirish, masalan, moliyalashtirishni yaxshilash yoki aholini madaniy tadbirlarga jalb qilish haqida o'ylash kerak.

XULOSA

Dissertant Sharq va G'arb falsafasi tarixida an'ana va an'anaviylik fenomenining evolyutsiyasi jarayonini o'rganib, quyidagi xulosalarga keldi:

1. An'ana va an'anaviylik fenomeni Sharq va G'arb falsafiy-tarixiy tafakkurida ham, tarixiy-retrospektiv nuqtayi nazardan ham, zamonaviylik nuqtayi nazaridan ham mustaqil mavqega ega. Komparativistika va madaniyatlararo falsafa chorrahasida turib, an'anaviylik shu asosda fanlararo darajaga ham chiqadi, chunki u madaniyatshunoslik va madaniy antropologiya, sotsiologiya va siyosatshunoslik, psixologiya va pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar bilim sohalarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot doirasida ta'riflangan an'ana tushunchasining o'zi va an'anaviylikda qanday tushunilishi uning ilmiy-falsafiy bilim va ijtimoiy hayotning turli sohalariga daxldor bo'lgan kompleks xususiyatini aks ettiradi. Falsafaning zamonaviy tarixi doirasida ham an'ana va an'anaviylik muammosini qo'yish aynan shu nuqtayi nazardan amalga oshiriladi.

2. An'anaviylikni falsafa tarixi fani doirasida tadqiq etish kompleks yondashuv va fanlararo aloqadorlikni talab qiladi, an'anaviylikning Sharq va G'arb madaniyatlari muloqotiga yo'naltirilishi esa bu yerda metodologiyaning asosini ham komparativistika, ham madaniyatlararo falsafa instrumentariysi tashkil etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, an'anaviylikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, muammoni to'liq va obyektiv ochib berish ma'lum darajada sof falsafiy yondashuv doirasidan chiqishni talab qiladi, chunki an'ana fenomeni madaniyat tarixining ajralmas qismi, u shakllangan jamiyat va identiklikga xoslikdir. Bu esa, o'z navbatida, tadqiqotchini ham turdosh fanlar metodologiyasi, ham ularning nazariy-konseptual fundamentiga qaratadi.

3. Falsafa tarixi Sharq va G'arb paradigmalari va umuman falsafa fani doirasida an'anaviylikni tushunish an'ana fenomenini ikki tomonlama – ezoterik

